

KONSTITUTSIYA MENING NAZARIMDA

Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti
„Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo'yicha)
talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Konstitutsiya davlatimizning asosiy qonuni. Unda barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Konstitutsiyaning barcha normalari xalqaro huquq normalariga mos ravishda tashkil etiladi. Konstitutsiyamizda asosan inson huquqlari va erkinliklari alohida ahamiyat kasb etadi va konstitutsiyamiz qolgan barcha qonunlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Undagi barcha norma va qoidalar barcha uchun bir xilda, teng talqin qilinadi. Shu o'rinda konstitutsiyaning birorta qoidasi yoki normasi qonunga zid tartibda qabul qilinishi mumkin emas.

Kalit so'zlar: Inson, Konstitutsiya, BMT, huquq, jamiyat, saylov tizimi, referendum, xalqaro huquq, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, subyekt, suverenitet, demokratiya, Konstitutsiyaviy huquq, mafkura, bozor iqtisodiyoti.

Barchamizga ma'lumki konstitutsiyamiz amaldagi barcha qonunlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda barchamizning huquq, burch va erkinliklarimiz e'tirof etiladi. Konstitutsiyamizning ahamiyatiga monelik jihat shundaki, bunda avvalambor inson, uning hayoti, qadr qimmati, sha'ni, huquq va erkinliklariga alohida e'tibor beriladi va barcha uchun teng talqinda etirof etiladi. Xususan konstitutsiyamizning 19-moddasida takidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq erkinliklari xalqaro huquqning umumetirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Shuningdek BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati shundaki, unda ilk marotaba dunyo hamjamiyati inson va uning huquqlarini himoya qilishni xalqaro muammo darajasida etirof etdi. Shunday

ekan barchamiz konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz riosa qilishimiz va hurmat qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Konstitutsiya va qonunlarni mensimaslik va past nazarda qarash esa Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va qonunchilikga binoan jazolashga asos bo'ladi.

Konstitutsiyamiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo konstitutsiya so'zi ma'nosini tushunishimiz zarur. Konstitutsiya so'zi lotincha „Constitution“ so'zidan olingan bo'lib tuzilish, tartibot degan ma'nolarni anglatadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruva organlari tizimini, ularning vakolatlari hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Konstitutsiyaga nazar solar ekanmiz uni Mustaqillik sari uzoq intilishlar natijasida paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Asosan uni yaratishdan uch mingyillik milliy davlatchilik tajribasiga tayangan. Shuningdek asosiy qonunimiz sharq va g'arb, janub va shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olgan holda yaratilgan. Konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar „Mustaqillik deklaratsiyasi“ asosiy qonun vazifasini bajargan. Mustaqillik deklaratsiyasi 12 ta moddadan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yilda 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi oily kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yilning 1-mayidan e'tiboran kuchga kirdi. Bunda Konstitutsiya lavhasini umumxalq ovoziga, referendumga qoyildi va uning 65 foiziga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Natijada 6 bo'lim 27 bob 155 moddadan tashkil topdi (eski tahrirdagi konstitutsiya 6 bo'lim 26 bob 128 moddani tashkil etgan). Shuningdek 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11ta modda ushbu qonunnung qabul qilinishiga asos bo'ldi. Unga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar o'zgarishlar soni yuqoriligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qulindi. Yangilash natijasiga ko'ra, bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi va shu tariqa Konstitutsiyaning 65 foizi yangilandi.

"Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o'matiladi; davlat hokimiyatining tuzilishi, subyektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Konstitutsiya o'z mohiyati va yuridik tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, konstitutsiya maxsus subyekt, ya’ni O’zbekiston xalqi tomonidan referendum orqali yoki uning nomidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko’pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi;

Ikkinchidan, konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo’naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

Uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovlligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko’lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko’rsatadi;

To’rtinchidan, konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega, ya’ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o’ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o’zgartirilish tartibiga ega.

Konstitutsiya o’z ijtimoiy vazifasini bajargan vaqtida turli xildagi funksiyalarini bajaradi. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

-Siyosiy funksiyasi. Konstitutsiya jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi; siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining davlat hokimiysi bilan munosabatlarini muvofiqlashtiradi; saylovlar va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni ta’minlaydi; davlat yuritadigan ichki va tashqi siyosatning asoslari va barcha muhim yo’nalishlarini aks ettiradi.

-Yuridik funksiyasi. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo’lgan huquqiy hujjat bo’lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o’zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatdagi barcha huquqiy hayat va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

-Tarbiyaviy-mafkuraviy funksiyasi. Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turki beruvchi, muhim ma’naviy omil bo’lib xizmat qiluvchi g’oyalar o’z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqlol g’oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo’lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.” Mamlakatimizda amal qilib turgan

konstitutsiyaviy huquq normalari O'zbekistonning davlat suvereniteti, shaxsning oliy qadriyat ekanligi, milliy davlatchilikning o'ziga xos xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti xususiyatlari va tamoyillarini o'zida aniq aks ettirgan bo'lib, ular boshqa huquq tarmoqlarida ham o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tahlili shuni ko'rsatadi, ular orqali:

- O'zbekistonning suverenligi, mustaqilligi to'la ta'minlangan;
- Inson huquq va erkinliklari xalqaro andozalarga mos ravishda belgilangan;
- Shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan;
- Demokratik asoslarda va tamoyillarda hokimiyat tizimi va hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan;
- Eng asosiysi, konstitutsiyaviy huquq normalari har qanday mafkuradan ozod qilingan.

Konstitutsiyamizning 12-moddasida takidlanganidek hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma xilligi asosida rivojlanadi. Shu jihatdan, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha barcha sohalarda, ayniqsa, sud-huquq tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi to'rt yilda 2 ming 600 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilib, 2 ming 400 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingani, 7 ta sud bosqichi 3 bosqichga keltirilib, sud tizimi "bir sud – bir instansiya" tamoyili asosida qayta tashkil etilayotgani fikrimizni isbotlaydi.

Yana bir quvonarli jihat shuki, uzoq vaqt fuqarolikka ega bo'lmay kelgan insonlar bugungi kunda o'zlarini to'laqonli O'zbekiston fuqarolari deb his etmoqda. O'tgan yigirma besh yilda 482 nafar shaxsga fuqarolik berilgan bo'lsa, bugungi kunda 50 mingdan ziyod kishi shu huquqqa ega bo'limoqda.

Bugun O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilyapti. Masalan, 2020 yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan bir qator tashabbuslar, aniq amaliy takliflar xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek O'zbekiston xalqaro anjumanlar saroyida 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishining 27 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqni ushbu bayram bilan tabrikaldi va jinoyat sodir etgan mahkumlarni avf etish bo'yicha 8 ta farmonni qabul qilib 4 mingdan ziyod shaxsni jazoni o'tash

joylaridan ozod qildi. Konstitutsiyamizning 28 moddasiga binoan: Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, guman qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtida sukul saqlash huquqididan foydalanishi mumkin. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Konstitutsyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariiga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariiga zid kelishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti bo'lib, uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariiga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariiga asoslanadi (17-modda). Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin (18-modda). Konstitutsiya va qonunlardan oqilona foydalanib ularga riosa etgan holda o'z faoliyatimizni olib borishimiz nur ustiga alo nur bo'ladi. Bundan tashqari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun xalq qabulxonalarini va virtual qabulxonalar o'z faoliyatini yuritmoqda. Zero yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek „xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak.“

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, asosiy qomusimiz kafili sifatida konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish „Inson qadri uchun“ degan ustuvor tamoyillarni to'la ro'yobga chiqarish bundan keyin ham faoliyatimizning bosh mezoni bo'lib qoladi. Albatta inson qadri biz uchun qandaydir jumboqli tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo har bir fuqaroning tinch va barkamol hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarining to'la ta'minlanishini tushunamiz. Shunday ekan manashunday huquq va erkinliklardan foydalanib o'z faoliyatimizni amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

MANBA:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel
2. Konstitutsiyaviy huquq. O.T.Husanov.
3. www.uza.uz
4. Davlat va huquq nazariyasi.-T „Sharq“
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi
7. Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyaviy islohotimizning bosh maqsadi Inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqi
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida“ gi farmoni
9. 9-sinf huquq darsligi „sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririylati
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan.) URL:<http://lex.uz/uz/docs/20596>